

VOL 4. ISSUE 9



JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES



zenodo


OpenAIRE | **EXPLORE**

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

**ISSN:
3030-3311**

VOLUME | 4 ISSUE | 9 | APRIL | 2026



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI PAYDO BO'LISH TARIXI VA TA'LIM TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

O'ralova Odina Ravshanovna


Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi
e-mail: oralovaodina@gmail.com

ANNOTATION:

Mazkur maqolada Forobiyning pedagogik-psixologik fikrlari keng tahlil qilinadi hamda uning bugungi ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritiladi.

KEYWORDS:

Forobiy, fozil inson, pedagogika, psixologiya, tahlil, "Muallim as-soniy", umumbashariy, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat.



April 28, 2026,
Published Date:
April 30, 2026

Journal Website:

<https://d-prensa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/)

Kirish

O'lkamizda XIX asrning 80-90-yillariga kelib maktabgacha ijtimoiy tarbiya tizimini vujudga keltirish g'oyalari yetila boshlandi. O'sha davrda yashab ijod etgan ma'rifatparvar mahalliy ziyolilar ayollarning og'ir ahvoli va bolalar nazoratsizligini e'tiborga olib, bu masalaning yechimini izlay boshlaydi. Jumladan, 1872-yilda Turkistonda tuzilgan «Jamiyati xayriya» tarkibiga kirgan ziyolilar vakillari tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, ilk tug'uruqxonalar bilan bir qatorda, ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonalar (dastlabki bolalar uylari) tashkil etildi. Butun Turkiston bo'yicha 150-200 nafar bolani qamrab olgan ushbu yetimxonalarda ham yasli yoshidagi, ham maktab yoshidagi bolalar tarbiyalangan.

Bolalar bog'chasi — maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni tarbiyalovchi muassasa. Birinchi marta 1837-yil Germaniyada nemis pedagogi F. Frebel tomonidan tashkil etilgan. Bolalar bog'chasi xalq ta'limi tizimining dastlabki bo'g'ini hisoblanadi.

Asosiy qism

O'zbekistonda odatdagi Bolalar bog'chasi 3—7 yoshli bolalarga mo'ljallangan. 2 oylikdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanadigan yaslibog'chalar ham bor. Bundan tashqari sog'lomlashtirish bog'chalari, jismoniy va aqliy nuqsonli bolalar uchun bog'chalar, uybog'cha, mavsumiy bog'chalar (asosan qishloq xo'jaligi ishlari ko'paygan vaqtda tashkil etiladi), "bolalar bog'chasi maktab" majmui ham mavjud. Bolalar bog'chasi hokimiyatning ijroiya organlari tomonidan tuman, shahar, muassasa, korxona, xo'jalikda tashkil etiladi. Bolalar bog'chasi qaysi tashkilot qaramog'ida bo'lishidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi uni kadrlar bilan

ta'minlaydi va faoliyatiga ilmiy pedagogik jihatdan rahbarlik qiladi. O'zbekistondagi bog'chalarda bolalarga chet tillari, xoreografiya, tasviriy va musiqiy san'at, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etilgan. 2000-yil O'zbekiston Respublikasida 6742 Bolalar bog'chasi ishladi, ularda 608 ming 500 bola tarbiyalandi. Bog'chalar ochilishi ko'plab oilalarga qulaylik va osonlikni yaratib berdi.

1891-yilda «Bog'dorchilik» jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun «Bolalar maydonchasi» ko'rinishida birinchi bolalar bog'chasi ochilgan. Bolalar bog'chasi uchun istirohat bog'i hududidan sersoya joy ajratib berilgan bo'lib, bu yerda arg'imchoqlar, qayiqdar o'rnatilgan, turli o'yinchoqlar tayyorlangan. Bundan tashqari, maydonchada kattagina gulzor tashkil etilib, bu yerda bolalar o'simliklarni parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lgan. Ammo 1891 — 1903 yillar mobaynida mablag' taqchilligi sababli bog'cha bir necha marta yopilgan.

1896-yilda Turkistonda vasiylar kengashi kambag'allarning bolalari uchun «yasli»lar deb ataladigan muassasalarni tuza boshladi. Yasli ishlarini nazoratchi-uslubchi ayol boshqargan, shuningdek, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasalarda bolalarga o'qish, yozish, sanash bilan bir qatorda, talay hunarlar ham o'rgatilgan¹⁰.

XX asrning 30-yillarini maktabgacha tarbiya dasturlarida bolalar bog'chalarining tozalik va metodik yordam holatini tekshirish keng tarqaldi. Bu tekshirishlar natijalariga ko'ra xonalar va maydonchalarning jihozlanmaganligi, asbob-uskunalar bilan ta'minlanmaganligi, tozalik me'yorlariga amal qilinmasligi kabi kamchiliklarga qarshi kurash olib

¹⁰ Esonova M. A., Maktabgacha pedagogika, Darslik. Toshkent 2022-yil

borilgan¹¹.

Qishloqlardagi bolalar bog'chalari va maydonchalari maktabgacha tarbiya tashkilotlariga nisbatan bo'lgan salbiy qarashlar tufayli katta qiyinchiliklarga duchor bo'lgan. 1930-yilda O'zbekistonda respublikaning barcha katta shaharlari va viloyatlarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan maktabgacha tarbiya pedagogik maslahatxonasi tashkil qilindi. Uning faoliyati doimiy ma'ro'zalar, radiosuhbatlar, ayollar uchun ko'rgazmalar tashkil qilishdan iborat edi. Ular uchun bolalarga eng yaxshi burchak qilish bo'yicha musobaqa ham o'tkazilgan. Pedagogik maslahatlar beruvchilar oilalarga borishgan va bolalar burchaklarini tashkil qilishgan va shu bilan bolalarni bog'chalarga qabul qilish tartiboti hamda oilalarning tarbiya masalalari bo'yicha maslahat berish bilan birlashtirilgan.

1933-1934 yillarda sanab o'tilgan harakatlar natijasida O'zbekistonda 3840 ta kolxoz maydonchalari bo'lib, unda 127 ming bolalar qatnashgan. 1933-yil bolalar bog'chalari uchun ilk dastur loyihalarini ishlab chiqarish yili bo'ldi. Rusiy zabon bolalar bog'chalari dasturlari asosida tuzilgan bu dasturlar keyinchalik mahalliy sharoitlarni inobatga olib qayta tuzilgan. Maktabgacha tarbiya birlashmalarining metodik faoliyati yagona markaz tomonidan rahbarlikni amalga oshirishga ehtiyoj sezgan. 1934-yil Toshkentda tuzilgan Respublika maktabgacha tarbiya metodik xonasi shunday markaz vazifasini bajardi. Ommaviy maktabgacha tarbiyaning rivojlanishida eng katta to'siqlardan biri malakali kadrlarning yetishmasligi bo'lgan. Qishloq aholisidan kadrlar tayyorlash uchun qisqa muddatli 3 oylik kurslar tashkil qilingan. Bundan tashqari XX asrning 70-

yillari boshidan maktabgacha tarbiya mutaxassislarini tayyorlash vazifasi pedagogik o'quv yurtlari zimmasiga qo'shildi. 1930-yildan Toshkentda faoliyat yurituvchi pedagogik o'quv yurti 1936-yilda 60 ta mutaxassis tayyorladi¹².

Natijada 1938-1939 yillarda respublikada 927 ta bolalar bog'chasi ochilgan edi va ularda 36710 ta bola bor edi. Maydonchalar soni esa 4835 ta bo'lib ularda 152000 bola bor edi. Shu bilan birga bu vaqtda onalar uchun "Bolalar xonalari" nomli maktabgacha tarbiya tashkilotlari ham tuzilgan. Shu davrda va keyingi yillarda maktabgacha tarbiyani yaxshilash maqsadida quyidagi choralar ko'rilgan:

- joylarda metodik ishlarni tashkil qilish;
- mebel, o'quv qo'llanmalari, o'yingohlarning standartlarini ishlab chiqish;
- maktabgacha tarbiya masalalariga jamoatchilik va aholining e'tiborini qaratish (matbuotda nashr qilish, hujjatlarni tuzish) va sh.k.

Urush yillari O'zbekistonga 200 ming bola ko'chirib keltirilgan va natijada bolalar bog'chalari tarmog'ining kengayishi, ularda ish kunini uzaytirish zaruriyati paydo bo'lgan. Urush yillari maktabgacha internatlar ham tashkil qilingan. Ulardagi tarbiyaning o'ziga xosligi shundan iboratki, ularda o'z oilasi, yaqinlaridan ajragan bolalar tarbiyalanishgan. Bu holda pedagoglarning har bir bola uchun mas'uliyati tabora oshib borgan¹³.

Urushdan keyingi davrda oziq-ovqat muammolari munosabati bilan kuchsizlangan bolalar uchun sog'lomlashtirish chora-tadbirlari kuchaytirildi. Bu maqsadda respublikaning

¹¹ Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y

¹² Qodirova F., Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.Azamova, Maktabgacha Pedagogika Toshkent 2019

¹³ Kayumova N.M. "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013 y

bir qator shaharlarida sanatoriya tipidagi bog'chalar tashkil qilindi. Qishloq hududida maktabgacha tarbiyaning rivojlanishiga katta ahamiyat berilgan. Bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayollar mehnatidan foydalanish zaruriyati bilan bog'liq edi. 1959-yildan maktabgacha tarbiyaning yagona tuzilishni tashkil qilish maqsadida ikki turdagi maktabgacha tarbiya tashkilotlari bitta yasli bog'chaga birlashtirildi. Bu esa bolalarni tarbiyalash jarayonining faollashuviga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gavxar X., Shohbozbek E. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MAKTABGACHA TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 303-310.
2. Norbutayevna K. M. et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari porloq kelajakning asosiy poydevori sifatida //Modern education and development. – 2025. – T. 20. – №. 1. – C. 211-217.
3. Ma'murjonovna G. S., Shohbozbek E. MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANGICH TALIM O'RTASIDA MANAVIY TARBIYANING UZVIYLIGI //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 190-197.
4. Kamolov D. ON THE WAY TO THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. – 2023.
5. Gaynazarova G. A., Tadjiyeva E. M. XORIJIY DAVLATLARDA MAKTABGACHA TA'LIM RAHBARLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-ASOSIY YO'NALISHLARI //SYMPOSIUM ON ADVANCED STUDIES AND FUTURE DIRECTIONS. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 236-240.
6. Aziza E., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA

TA'LIM TIZIMIDA MADANIY MEROS VA AN'ANAVIY TARBIYANING O'RNI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 375-384.